

V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo'q.

2022 yil 1 iyul holatiga viloyatda 32 105 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etildi. Shundan, xizmatlar sohasida 20 931 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 foizga ko'paydi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keldi. Natijada, 2022 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 7356,7 mlrd.so'mni tashkil etdib,o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,0 foizga o'sdi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmat turlari bo'yicha (amaldagi baholarda) quyidagicha ifodalanadi:

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>yakunga nisbatan, foizda</i>
Jami xizmatlar	7 356,7	116,0	100,0


shu jumladan:

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	292,1	119,4	4,0
Moliyaviy xizmatlar	1 335,7	132,8	18,1
Transport xizmatlari	1 520,6	105,8	20,7

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>yakunga nisbatan, foizda</i>
shu jumladan: avtotransport xizmati	1 360,5	104,3	18,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	277,2	106,9	3,8
Savdo xizmatlari	2 494,8	116,7	33,9
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	154,2	107,8	2,1
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	388,9	115,1	5,3
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	127,4	114,1	1,7
Ijara xizmatlari	181,4	115,3	2,5
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	147,7	108,2	2,0
Shaxsiy xizmatlar	152,0	107,6	2,1
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	61,7	109,2	0,8
Boshqa xizmatlar	223,0	119,6	3,0

Xizmat ko‘rsatishda eng katta ulush savdo (33,9 foizi), transport (logistik xizmatlar bilan birga) (20,7 foizi), moliyaviy (18,1 foizi), ta’lim (5,3 foizi) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,0 foizi) xizmatlarga to‘g‘ri keldi. Moliyaviy xizmatlar (o‘tgan yilga nisbatan 132,8 foizga ko‘p), boshqa xizmatlari (119,6 foizga ko‘p) o‘sish yuqori bo‘ldi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida shahar va tumanlar kesimida ulushi, foizda



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida katta ulushga ega bo'lgan Buxoro shahri (37,0 foizni), G'ijduvon tumani (12,5 foizni), Vobkent tumani (8,5 foizni), Jondor tumani (5,4 foizni) tashkil etgan bo'lsa, Kogon (3,2 foizni) va Qorovulbozor tumanlari (1,6 foizni) bilan eng past ulush ko'rsatkichni qayd etdi.

Shahar va tumanlar orasida yuqori o'sish sur'atlari Vobkent (140,8 foiz) hamda Romitan (117,9 foiz), Peshko' (115,7 foiz) tumanlarida va Buxoro (117,5 foiz) shaharlarida kuzatildi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida 9546,2 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,2 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar
(tuman va shaharlar kesimida)

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmiga nisbatan, foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	7 356,7	116,0	100,0	3 708,7	114,2
Buxoro sh.	2 721,6	117,5	37,0	9 546,2	116,2
Kogon sh.	252,7	113,5	3,4	4 029,8	111,7
tumanlar					
Olot	252,2	110,1	3,4	2 480,0	108,7
Buxoro	381,6	110,6	5,2	2 209,6	108,6
Vobkent	624,5	140,8	8,5	4 336,7	138,7
G'ijduvon	917,0	111,1	12,5	2 930,6	109,3
Kogon	235,5	110,5	3,2	2 892,6	108,2
Qorako'l	319,0	112,9	4,4	1 900,2	111,3
Qorovulbozor	119,8	100,1	1,6	6 239,7	97,0
Peshko'	396,2	115,7	5,4	3 117,4	113,7
Romitan	420,8	117,9	5,7	2 866,4	115,9
Jondor	397,8	110,5	5,4	2 212,5	108,7
Shofirkon	318,0	110,4	4,3	1 744,1	108,6

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Shofirkon (1744,1 ming so'm), Qorako'l (1900,2 ming so'm) va Buxoro (2209,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida
bo'yicha aholi jon boshiga hajmlar, ming so'm**




Hozirgi kunda respublikada ulgurji va birja savdo korxonalarining faoliyati uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 2494,8 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 33,9 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining o'sish sur'ati 116,7 foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahri (495,5 mlrd. so'm), Vobkent (419,0 mlrd. so'm), G'ijduvon (353,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd.so‘m
(2022 yil yanvar-iyun)




Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Ushbu hududda savdo xizmatlari hajmi 44,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Aholi daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi ko'lami o'smoqda. Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2022 yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 63,4 foizni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 31,0 foizni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarni qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 5,6 foizni tashkil qiladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, foiz
(2022 yil yanvar-iyun)




Transport xizmatlarining eng katta qismi avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlarining hajmi 1520,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ularning o'sishi 105,8 foizni tashkil etdi.

Yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahrida (121,2 foiz), hamda Olot (109,2 foiz), Romitan (108,2 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlarining hajmi, mln. so'm

(2022 yil yanvar-iyun)



O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining o'sish sur'ati, Qorovulbozor (71,6 foiz) tumanida pasayganligi qayd etildi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda ong va fikrlashdagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab, ma'naviyatni yuksaltirishga hissa qo'shadi.


Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi,

darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022 yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 388,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 115,1 foizni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'ati, foiz

(2022 yil yanvar-iyun)



2022 yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 127,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 114,1 foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida sog‘liqni saqlash xizmatlarining o‘sish sur‘ati, foiz
(2022 yil yanvar-iyun)



Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo‘yicha yuqori o‘sish sur‘atlari Qorovulbozor (154,0 foiz) tumanida kuzatildi.

O‘tgan yilga nisbatan bu xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi Shofirkon (108,3 foiz) shaxrida qayd etildi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3708,7 ming so‘mni tashkil qildi va o‘sish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 114,2 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini etarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog‘liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.